

UDK 631.15:338.43(575.1)

Mirzayev Bobur Baxodirovich

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash
muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti talabasi
Toshkent, O‘zbekiston

BUG‘DOY YETISHTIRISHDA IQTISODIY SAMARADORLIK VA RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida bug‘doy yetishtirish jarayoniga va uning tannarxini kamaytirishga tasir ko‘rsatadigan muammolarni tahlil qilishga qaratilgan va shu bilan birgalikda yuzaga kelayotgan muammolarning yechimlari borasidagi takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: bug‘doy yetishtirish, iqtisodiy samaradorlik, ishlab chiqarish xarajatlari, hosildorlik, resurslardan foydalanish, tannarx tahlili, rentabellik.

Mirzayev Bobur Baxodirovich

Student of “Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural
Mechanization Engineers” National Research University
Tashkent, Uzbekistan

ECONOMIC EFFICIENCY AND RESOURCE USE IN WHEAT PRODUCTION

Annotation: This article analyzes the challenges affecting the process of wheat cultivation and the reduction of its production costs in the Republic of Uzbekistan. It also presents proposed solutions to address the emerging issues in this sector.

Key words: wheat production, economic efficiency, production costs, yield, resource utilization, cost analysis, profitability.

Kirish. Bugungi dunyo katta sinovlarni boshidan kechirmoqda. Global xavfsizlik va barqaror rivojlanishga jiddiy tahdidlar tobora kuchaymoqda, geosiyosiy jarayonlar ko‘z o‘ngimizda shiddat bilan o‘zgarmoqda. Jahonda qurollanish poygasi yana avj olmoqda. Yirik mamlakatlarning harbiy xarajatlari

2010 yilga nisbatan bir yarim barobar ortib, 2,5 trillion dollarga yetdi. Iqtisodiy inqiroz asoratlari, moliyaviy resurslar taqchilligi tufayli jahon yalpi ichki mahsulotining o'sish sur'atlari esa ketma-ket uch yil davomida pasaymoqda. O'zbekiston Rkspublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev to'g'ri ta'kidlaganidek "Bugun ming afsuski, xalqaro huquq normalari va diplomatiya kuchi zaiflashmoqda. Eng achinarlisi, insoniyat uchun eng dolzarb muammolar – oziq-ovqat xavfsizligi, kambag'allik, iqlim o'zgarishlari kabi masalalarga e'tibor kamaymoqda. Dunyoda tinchlik, adolat va inson qadriga bo'lgan umumiy ishonchni tiklash har qachongidan ham muhim"[1].

O'zbekistonda bug'doychilik strategik ahamiyatga ega mahsulotlardan biri hisoblanadi, u oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda, iqtisodiy barqarorlikni saqlashda va eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. 2018-2022 yillarda ekin maydonlari 1,3% ga kamaygan, bug'doy va paxtaning umumiy ulushi 73,5% dan 69,5% ga tushgan. Shunga qaramay, bug'doy hosildorligi 15,1% ga oshib, 1 gektar maydondan 47,2 sentnergacha yetgan. 2023-yilda esa mamlakat bo'yicha 6,47 million tonna bug'doy yetishtirilgan[2].

Metodologiya. Maqola materiallarini tayyorlash jarayonida statistik tahlil, taqqoslash usullaridan keng foydalanildi. Mazkur maqola doirasidagi muallifning xulosalari aksariyati monografik kuzatuvlar hamda mutaxassisning ekspert baholash usullari mahsuli hisoblanadi.

Natijalar. Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki 2023-yilda 1 gektar joyda bug'doy ishlab chiqarish xarajatlari orasida 4 ta resurs ko'p mablag' talab qiladi va shularning orasida eng ko'pi bu organik o'g'it uchun xarajatlardir. Organik o'g'it uchun xarajatlar 5 600 000 so'mni sal kam umumiy ishlab chiqarish xarajatlarning 50% ni tashkil qiladi. Keyingi o'rinda esa urug' uchun xarajatlardir va bu xarajat 1 615 460 so'mni tashkil qiladi. Uchunchi eng ko'p xarajat bu texnika ijarasidir 1 365 000 so'm. Oxirgi eng ko'p mablag' talab qiladigan resurslardan biri mehnat resursidir 1 000 000 so'm. Bundan tashqari ko'zga tashlanadigan xarajatlar bular: yonilg'i resurslari, azot o'g'iti va

sugʻorishdir. 1 tonna bugʻdoy ishlab chiqarish uchun Oʻzbekistonda 2023- yil oʻrtacha 2 043 140 soʻm xarajat qilinadi. 1 tonna bugʻdoyning oʻsha yilgi bozor narxi esa 3 000 000 soʻmdir va yuqoridagi hisob kitoblarga koʻra oʻrtacha 1 gektardan olinadigan sof foyda 2 601 230 soʻmni tashkil qilyapti.

5-jadval.

2023-yilda Oʻzbekistonda 1 gektar joyda bugʻdoy ishlab chiqarish xarajatlari, tannarx va sof foyda tahlili. (Muallif tomonidan ishlanma)

Koʻrsatkich	Barcha toifadagi xoʻjaliklar (Miqdor)	Barcha toifadagi xoʻjaliklar (Narx, soʻm)	Barcha toifadagi xoʻjaliklar (Jami, soʻm)
Oʻrtacha hosildorlik (tonna/ga)	5.1		
Narx (soʻm/tonna)		3 000 000	
Umumiy daromad (soʻm/ga)			15 300 000
Oʻrtacha hosildorligi (samon, tonna/ga)	3.57		
Narx (samon, soʻm/tonna)		700 000	
Umumiy daromad (samon, soʻm/ga)			2 499 000
Yigʻib olingan bugʻdoy tarkibida don chiqindisi salmogʻi (%).	12		
Bugʻdoy tarkibidagi chiqindi miqdori (tonna)	0.612		
Don chiqindisida butun bugʻdoy salmogʻi (%)	40		
Urugʻ (Elita navi, kg)	220	7 343	1 615 460
Texnika ijarasi (yer haydash uchun)	1	600 000	600 000
Texnika ijarasi (urugʻ sepish uchun)	1	165 000	165 000
Texnika ijarasi (hosilni yigʻib olish uchun)	1	600 000	600 000
Texnika ijarasi (jami)	3	1 365 000	1 365 000
Yonilgʻi (jami, litr)	65	11 000	715 000
Azot oʻgʻiti (Ammiakli selitra, kg)	200	2 915	583 000
Fosfor oʻgʻiti (superfosfat, kg)	90	2 059	185 310
Kaliy oʻgʻiti (kg)	50	2 500	125 000
Organik oʻgʻit biosmus, tonna)	5	1 120 000	5 600 000
Kimyoviy vositalar (bir martalik)	1	180 000	180 000
Sugʻorish (soʻm/ga)	1	800 000	800 000
Mehnat (kishi/oy)	1	1 000 000	1 000 000
Soliqlar (bir martalik)	1	230 000	230 000
Boshqa xarajatlari (bir martalik)	1	300 000	300 000
Umumiy ishlab chiqarish xarajatlari (soʻm/ga)			12 698 770
Tannarx (soʻm/tonna)			2 043 140
Sof foyda (soʻm/ga)			2 601 230
Rentabellik (%)			26.9

Rentabellik koʻrsatkichi 26.9% ni tashkil qiladi. Bu koʻrsatkich qishloq xoʻjaligi uchun kutilgan natija deb aytsak boʻladi, lekin bundan ham yuqoriroq natijaga erishsa ham boʻladi. Chunki yuqori aytib oʻtgan koʻrsatkichlar yaʼni tannarx, sof foyda va rentabellik bularning hammasi bugʻdoyning hosildorligiga bogʻliq. Bu

bilan nima demoqchiman, 1 gektar joydan qanchalik ko'p bug'doy olinsa ya'ni hosildorlik darajasi ohsa bu tannarxni kamayishiga yordam beradi va sof foyda va rentabellikni oshirishi mumkin.

Mahsulot birligi tannarxini pasaytirish resurslar cheklangan sharoitda katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Mahsulot tannarxi to'g'ridan-to'g'ri ikki omilga bog'liq. Birinchidan, yetishtirilayotgan mahsulotning miqdoriga bog'liq. Yetishtirilayotgan mahsulot miqdorining oshishiga nimalar ijobiy ta'sir etsa, ular ustida ishlash lozim. Bularga dehqonchilikda ya'ni g'allachilikda quyidagilar kiradi: 1. Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv resurslaridan samarali foydalanish. Bu, o'z navbatida, hosildorlikning o'sishiga olib keladi; 2. Mintaqalar sharoitiga mos bo'lgan, ilmiy asoslangan qishloq xo'jaligi yuritish tizimini joriy etish; 3. Almashlab ekishni to'g'ri joriy qilish, talab va imkoniyatdan kelib chiqqan holda ekin turlarini joylashtirishni ratsional tashkil etish; 4. Urug'chilikni yaxshilash, selektsiya ishlarini jonlantirish; 5. Ma'danli va organik o'g'itlardan foydalanishni ilmiy asosga qo'yish, barcha kimyoviy vositalardan samarali foydalanish; 6. Ishchi xodimlarning manfaatdorligini oshirish. 7. Bug'doyni kasalliklardan va hashoratlardan himoya qilish uchun genetik himoya, madaniy amaliyotlar, biologik nazorat, kimyoviy boshqaruv va monitoringni birlashtirgan holda qo'llash.

Dehqonchilik tarmoqlarida mahsulotlar tannarxining past bo'lishiga xarajatlarni tejash ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bu boradagi omillarga quydagilar kiradi: 1. Ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalashtirish; 2. Ekinlarni parvarishlashda intensiv texnologiyalarni qo'llash; 3. Ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanish; 4. Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va joylashtirish; 5. Ishchi xodimlarning manfaatdorligini oshirish; 6. Agrosanoat integratsiyasini chuqurlashtirish, agrosanoat majmuasiga kiruvchi tarmoqlarning mutanosib rivojlantirilishi; 7. Boshqaruv tizimini rivojlantirish hisobiga u bilan bog'liq xarajatlarni tejash[1].

Xulosa. Bug‘doychilik tarmog‘ida mahsulot birligi tannarxini pasaytirish xo‘jaliklarning barqarorligi va rentabelligi uchun asosiy omil. Hosildorlikni oshirish mahsulot tannarxini kamaytirishga yozrdam beradi. Shuning uchun, hosildorlikni oshirish uchun esa zamonaviy texnologiyalarni, ilmiy tadqiqot natijalarini, boshqaruv va ijtimoiy chora-tadbirlarni birgalikda qo‘llash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning to‘rtinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi nutqi. 2025 yil 10 iyun // <https://president.uz/uz/lists/view/8203>
2. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda paxta va bug‘doy hosildorligi oshdi. // <https://agroworld.uz/uz/yangiliklar/songgi-yillarda-ozbekistonda-paxta-va-bugdoy-hosildorligi-oshdi>
3. Sotvoldiyev N. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. – Toshkent: 82-bet.